	Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalarda tanqidiy fikrlash qobiliyatini metodlar orqali rivojlantirish ..... 629 <i>Ro'zmetov Ravshan Sharipbayevich</i>
	Bo'lajak tarbiyachilarda muloqot madaniyatini tarbiyalash ..... 633 <i>Uljayeva Sevara Abdirazzoqovna</i>
	Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan zamonaviy darsliklar tuzilishi va mazmuni ..... 638 <i>Po'latova Marjona Inomjon qizi</i>
	STEAM ta'lim texnologiyasini maktabgacha ta'limida qo'llash bo'yicha xorijiy tajribalar ..... 643 <i>Saidova Nigora Olimovna, Pirmatova Zaynabxon Elmurod qizi</i>
	Raqamli texnologiyalar vositasida bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish ..... 646 <i>Ergasheva Sunbula Baxtiyor qizi</i>
	O'quvchilarda ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikning shakllanishi va uning dolzarb muammolari ..... 650 <i>Gaparova Mastona Safaraliyevna</i>
	Adabiyot darslarini o'qitishda 5E modelidan foydalanish ..... 654 <i>Abdiraupova Zarnigor Abdinabi qizi</i>
	Oliy ta'limda kompetensiyaga asoslangan o'qitish modellari ..... 657 <i>Ernazarov Alisher Ergashovich, Chinqulova Gulmehra</i>
	Traditional Techniques and Modern Approaches in the Production of National Costumes ..... 665 <i>Jabborova Dilshoda Xolmamat qizi</i>
	Pedagogik platformalar va kognitiv-didaktik yondashuvlar integratsiyasi yordamida talabalarning kasbiy tayyorgarlik tizimini yangi bosqichga olib chiqish ..... 668 <i>Raxmonov Omadjon Mamasidiq o'g'li</i>
	Aqli zaif o'quvchilarda disgrafiyani bartaraf etishda assistiv texnologiyalarning ahamiyati ..... 672 <i>Usmonov Umid Allayorivich</i>
	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish ..... 676 <i>Adizova Nigora Baxtiyorovna, Akbarova Sarvinoz Sadriddinovna</i>
	Tadqiqotchilik kompetentligi pedagogik muammo sifatida ..... 681 <i>Ergashev Nozim Nabiyevich</i>
	Teaching Reading to Young Learners: Essential Principles for Primary School Teachers ..... 684 <i>Toshtanova Maftuna Xamidjon qizi</i>
	Tarmoq qurilmalari va tizimlarini boshqarish modulini o'qitish orqali o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash ..... 687 <i>Karimova Charos Abduhalim qizi</i>
	Maktabgacha yoshdagi bolalarda og'zaki nutq rivojlanishining psixolingvistik asoslari ..... 691 <i>Musayeva Nafisa Kudratovna, Muxammadova Saodat Muzaffar qizi</i>
	"Kasbiy ma'naviyat" fani bo'lajak pedagoglarda ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarni intensiv rivojlantirish omili ..... 695 <i>Ismoilov Yoqubjon Quchqarboyevich</i>
	Yapon tilini o'rgatishda talabalarning gapirish ko'nikmasini rivojlantirish: tamoyillar, bosqichlar va innovatsion usullar ..... 699 <i>Baqoyev Navro'zjon Abdullo o'g'li</i>
	Texnologik ta'lim jarayonida ixtirochilik va loyihalashtirish kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari ..... 705 <i>Zokirova Nargiza Akbarjonovna</i>
	Bo'lajak pedagoglarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning psixologik asoslari ..... 710 <i>Eshnazarova Farida Jo'raqulovna</i>
	Ta'lim islohotlari sharoitida genderni yo'naltirilgan ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari ..... 714 <i>Yaxyayeva Sojida Abduraximovna</i>
	Ko'rsatish olmoshlarining vazifaviy uslublarda qo'llanilishi ..... 718 <i>Berdiyeva Malika</i>
	Nazorat turlari orqali o'quvchilarning savodxonlik kompensatsiyasini shakllantirish ..... 721 <i>Xoldarova Irodaxon Valijonovna, Jo'rayeva Shodiya Kenjaali qizi</i>



Zamonaviy boshlang'ich ta'limni modernizatsiya qilish sharoitida o'quvchilarda lug'atlar bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi .....	726
<b>Buvajonova Mohiraxon Usmonali qizi</b>	
Boshlang'ich ta'limni modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlari: innovatsion taraqqiyot, metodik yangiliklar va istiqbollari .....	731
<b>Nazarova Mohigul Akmalovna</b>	
Maktab va pedagogika institutlari o'rtasida amaliyotga yo'naltirilgan dual ta'lim modelini takomillashtirish: muammolar va yechimlar .....	736
<b>Arabova Muxiba Bazarovna</b>	
Помощь советского государства в подготовке кадров для арабских государств .....	740
<b>Хомидова Камола</b>	
Место Узбекистана в развитии культурной сферы Советского союза во второй половине XX века ..	744
<b>Бекназаров Собиржон</b>	
Toshkent xalqaro kinofestivallarining Arab davlatlari va Afrika mamlakatlari kinosan'atida tutgan o'rni .....	748
<b>Sharifov Shoxjaxon To'liqinjon o'g'li</b>	
Ekonometrika fanini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari va istiqbollari .....	752
<b>Bobonorova Qundixan Quralbay qizi</b>	
O'quvchi faolligini oshirishda jadid maktablari tajribasi va faol ta'lim metodlarining integrativ qo'llanilishi ..	759
<b>Bobonazarov Orif Abrayqulovich</b>	
Влияние гендерной лингвистики на развитие психолингвистических исследований в Узбекистане ..	764
<b>Мусаева Елена Казимовна</b>	
Psixik rivojlanishni tashxislashda psixofiziologik usullardan foydalanish samaradorligi .....	767
<b>Sh. L. Rahmonova</b>	



# BOSHLANG'ICH TA'LIMNI MODERNIZATSIYA QILISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI: INNOVATSION TARAQQIYOT, METODIK YANGILIKLAR VA ISTIQBOLLARI

Nazarova Mohigul Akmalovna

Zarmed Universiteti Samarqand kompusi, o'qituvchi

**Annotatsiya:** Ma'lumki, boshlang'ich ta'lim hozirgi rivojlanayotgan jamiyatning intellektual salohiyatini shakllantirish, yosh avlodda asosiy kompetensiyalarni rivojlantirish hamda uzluksiz ta'lim tizimining barqaror faoliyatini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Ushbu bosqichda qo'llaniladigan metodlar va texnologiyalar nafaqat o'quvchilarning bilim sifati, balki ularning shaxsiy rivoji va kelajakdagi ijtimoiy faolligiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonlari, uning ustuvor yo'nalishlari, innovatsion taraqqiyotning pedagogik jarayonga ta'siri hamda metodik yangilanishlarning amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Boshlang'ich sinflarda o'qitishda raqamli ta'lim texnologiyalari, kompetensiyaviy yondashuv, STEAM ta'limi va kreativ metodlar orqali o'quv faoliyatini takomillash-tirish imkoniyatlari yoritib beriladi. Shuningdek, xalqaro tajribalar asosida ta'limni zamonaviylashtirish istiqbollari hamda milliy ta'lim tizimida ularni qo'llash bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar bayon etiladi. Tadqiqot natijalari boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish va innovatsion rivojlanishga xizmat qiluvchi nazariy hamda amaliy xulosalar bilan boyitilgan.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, pedagog, modernizatsiya, raqamli ta'lim muhitlari, STEAM ta'limi, ta'lim sifati monitoringi, xalqaro tajriba.

**Abstract:** It is widely acknowledged that primary education plays a crucial role in shaping the intellectual potential of a developing society, fostering the core competencies of the younger generation, and ensuring the stable functioning of the continuous education system. The methods and technologies employed at this stage directly influence not only the quality of students' knowledge but also their personal development and future social engagement. This article analyzes the processes of modernizing the primary education system, its priority areas, the impact of innovative development on the pedagogical process, and the practical significance of methodological innovations. The study highlights opportunities for improving students' learning activities through the use of digital educational technologies, competency-based approaches, STEAM education, and creative methods in primary education. In addition, based on international experience, the prospects for modernizing education and scientifically grounded recommendations for their implementation within the national education system are presented. The research findings are enriched with theoretical and practical conclusions that contribute to improving the quality of primary education and supporting innovative development.

**Key words:** primary education, teacher, modernization, digital learning environments, STEAM education, education quality monitoring, international experience.

**Аннотация:** Известно, что начальное образование играет ключевую роль в формировании интеллектуального потенциала развивающегося общества, развитии базовых компетенций молодого поколения и обеспечении стабильного функционирования системы непрерывного образования. Методы и технологии, применяемые на данном этапе, оказывают непосредственное влияние не только на качество знаний обучающихся, но и на их личностное развитие и будущую социальную активность. В статье анализируются процессы модернизации системы начального образования, её приоритетные направления, влияние инновационного развития на педагогический процесс, а также практическая значимость методических обновлений. Рассматриваются возможности совершенствования учебной деятельности обучающихся на основе использования цифровых образовательных технологий, компетентностного подхода, STEAM-образования и креативных методов в начальном обучении. Кроме того, на основе международного опыта представлены перспективы модернизации системы образования, а также научно обоснованные рекомендации по их внедрению в национальную образовательную систему. Результаты исследования обогащены теоретическими и практическими выводами, способствующими повышению качества начального образования и поддержке инновационного развития.

**Ключевые слова:** начальное образование, педагог, модернизация, цифровые образовательные среды, STEAM-образование, мониторинг качества образования, международный опыт.

## KIRISH

Boshlang'ich ta'lim jamiyatning intellektual salohiyatini shakllantirishda, shaxsni keyingi bilim olish jarayoniga tayyorlashda hamda mustaqil fikrlovchi avlodni voyaga yetkazishda hal qiluvchi o'rin tutadi. Mazkur bosqichda o'quvchilarning dastlabki bilimlari, dunyoqarashi, mantiqiy tafakkuri, axloqiy qarashlari va ijtimoiy moslashuv ko'nikmalari shakllanadi. Shu sababli boshlang'ich ta'lim sifati nafaqat alohida o'quvchining intellektual rivoji, balki jamiyatning umumiy taraqqiyot darajasi bilan ham chambarchas bog'liqdir.

Zamonaviy globallashtirish sharoitida bilim olish jarayoni yangi mazmun va shakllarni talab qilmoqda. Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarning kirib kelishi, axborot oqimlarining ortishi hamda zamonaviy kasblarning keskin o'zgarishi boshlang'ich ta'limni tubdan qayta ko'rib chiqish zaruratini kuchaytirmoqda. Bugungi kun o'qituvchisidan an'anaviy uslublar bilan cheklanib qolmasdan, o'quvchilarning ijodiy faolligini, mustaqil fikrlashini, kommunikativ salohiyatini va amaliy ko'nikmalarini rivojlantira oladigan yondashuvlarni qo'llash talab etiladi. Bizningcha, ushbu jihatlarni bosqichma-bosqich tahlil qilish, metodik yangilanishlarning ilmiy asoslarini o'rganish hamda ta'lim jarayonini takomillashtirishning istiqbolli yo'nalishlarini belgilash bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich ta'limni modernizatsiya qilish ta'lim mazmunini, pedagogik metodlar va texnologiyalarni zamon talablariga mos ravishda yangilashni taqozo etadi. Bizningcha, modernizatsiyalash jarayonida o'quvchi faqat bilimni qabul qiluvchi subyekt emas, balki faol ishtirokchi sifatida o'quv jarayonining markazida bo'lishi lozim, bu esa uning mustaqil fikrlash va ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon yaratadi. Innovatsion pedagogik yondashuvlar, jumladan interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar va loyiha asosida ishlash boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning bilish jarayonida faol qatnashishiga, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal etish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar va elektron ta'lim vositalarining keng tatbiq etilishi o'quvchilarning axborot madaniyatini, texnik ko'nikmalarini va mustaqil izlanish qobiliyatini oshiradi. Metodik yangilanishlar o'qituvchining kasbiy malakasini oshirishni ham talab qiladi, chunki zamonaviy pedagog o'quvchining rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi, yo'naltiruvchi hamda interfaol shaxs bo'lishi lozim. Shu nuqtai nazardan, xalqaro tajriba boshlang'ich ta'limni boyitish, o'quv jarayonini hayotiy vaziyatlar bilan bog'lash va o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashning samarali yo'llarini ko'rsatadi. Bularning barchasi ta'lim mazmunini takomillashtirish, metodik tizimni yangilash va o'quvchilarda XXI asr kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi, natijada boshlang'ich ta'limni modernizatsiya qilish nafaqat o'quvchilarning bilim va malakalarini oshiradi, balki jamiyatning intellektual salohiyatini mustahkamlashga ham hissa qo'shadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich ta'limni modernizatsiya qilish masalalari pedagogika va ta'lim metodikasi sohasida keng o'rganilgan. Xususan, G'afforova tomonidan boshlang'ich ta'lim metodikasi mazmuni va zamonaviy yondashuvlar tizimli tahlil qilinib, o'quv jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etishning didaktik asoslari yoritilgan. Xoshimov va Yo'ldoshevlar pedagogika nazariyasi va tarixi doirasida ta'lim mazmunining uzluksiz yangilanib borishi, pedagogik jarayonni modernizatsiya qilish zaruratini ilmiy asoslab bergan. Ushbu tadqiqotlarda boshlang'ich ta'lim shaxsning intellektual va ijtimoiy rivojida muhim bosqich sifatida talqin qilinadi.

Psixologik yondashuvlar nuqtayi nazaridan Hasanov rivojlanish psixologiyasi asosida kichik yoshdagi o'quvchilarning bilish jarayoni, tafakkur va motivatsiya omillarini tahlil qilgan. Vygotskiy tomonidan ishlab chiqilgan madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasi va "yaqin rivojlanish zonasi" g'oyasi boshlang'ich ta'limda individual yondashuv va o'quvchini faol subyekt sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, Ziyomuhamedov va To'xtaxodjayevar innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta'lim amaliyotiga tatbiq etishning metodik mexanizmlarini asoslab, o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratgan.

So'nggi yillarda raqamli ta'lim va xalqaro tajriba masalalari ham dolzarb yo'nalish sifatida o'rganilmoqda. Shodmonova raqamli ta'limning nazariy asoslarini tahlil qilib, elektron ta'lim vositalarining o'quv faoliyatiga ta'sirini ochib bergan. Qodirova va Jo'rayevlar tomonidan o'tkazilgan monitoring tadqiqotlari boshlang'ich ta'limda pedagogik metodlarning transformatsiyasini ilmiy dalillar asosida yoritadi. UNESCO tomonidan e'lon qilingan inklyuziv ta'lim bo'yicha yo'riqnomalar hamda OECDning PISA 2022 tadqiqotlari ta'lim sifatini baholash va xalqaro tajribalarni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish imkoniyatlarini ko'rsatadi. Fullan va Darling-Hammond tadqiqotlarida esa chuqur o'rganishga asoslangan pedagogika, STEAM va kompetensiyaviy yondashuvlar XXI asr bosh ta'limining strategik yo'nalishlari sifatida asoslab berilgan.



## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda boshlang'ich ta'limni modernizatsiya qilish jarayonlarini o'rganish maqsadida nazariy va empirik ma'lumotlardan foydalanildi. Ma'lumotlar pedagogika va ta'lim metodikasi sohasidagi ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda ilg'or xorijiy va milliy tajribalar tahlili asosida olindi. Shuningdek, boshlang'ich ta'limda qo'llanilayotgan metodik yondashuvlar holatini aniqlash uchun mavjud monitoring natijalari va ochiq statistik ma'lumotlar o'rganildi. Olingan ma'lumotlar tahliliy-taqqoslash, mantiqiy tahlil va umumlashtirish usullari yordamida qayta ishlanib, ta'limni modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlari aniqlandi. Tadqiqot jarayonida innovatsion metodlar, raqamli texnologiyalar hamda STEAM yondashuvining boshlang'ich ta'lim sifatiga ta'siri tizimli tahlil qilinib, ilmiy asoslangan xulosalar chiqarildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) dasturi boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning integratsiyalashgan bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion pedagogik yondashuv hisoblanadi. Ushbu dastur fanlararo bog'liqlikni ta'minlab, o'quvchilarda mantiqiy tafakkur, ijodiy fikrlash, muammolarni hal etish va amaliy ko'nikmalarni bir vaqtning o'zida shakllantirishga xizmat qiladi. STEAM dasturining asosiy afzalligi shundaki, u o'quvchilarga bilimni alohida fanlar doirasida emas, balki kundalik hayotiy vaziyatlarda qo'llash imkonini beradi, bu esa o'quv jarayonini interfaol va qiziqarli qiladi. Shu bilan birga, STEAM yondashuvi raqamli texnologiyalar va loyihalashtirish metodlarini birlashtirgan holda o'quvchilarning kreativ va innovatsion salohiyatini oshirishga yordam beradi hamda ularni kelajakdagi kasbiy va ijtimoiy faoliyatga tayyorlaydi, deb aytish mumkin.



1-rasm: Boshlang'ich ta'limni modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlari

Metodik yangilanishlar o'qituvchining professional malakasini oshirishni talab qiladi, chunki zamonaviy pedagog o'quvchining rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi, yo'naltiruvchi va interfaol shaxs bo'lishi lozim. Shu nuqtai nazardan, o'qituvchining kompetensiyasi metodik innovatsiyalarni samarali tatbiq etish, dars jarayonini muvofiqlashtirish va o'quvchilarning bilim olish faoliyatini optimallashtirish bilan bog'liqdir. Shu bilan birga, o'quv muhitini modernizatsiya qilish, qulay va xavfsiz sharoit yaratish, ta'lim jarayonini raqamli va interfaol vositalar bilan boyitish o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi.

Boshlang'ich ta'limni modernizatsiya qilish jarayonida ilg'or pedagogik yondashuvlarni tatbiq etish va o'quv jarayonini samarali tashkil etish bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganish zarur hisoblanadi. Masalan, Finlyandiya ta'lim modeli butun dunyo uchun namuna hisoblanadi; unda boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning ijodiy va mantiqiy tafakkuri, mustaqil fikrlash ko'nikmalari hamda ijtimoiy moslashuv salohiyati rivojlantiriladi, an'anaviy bosim va majburiy uy ishlari minimal darajada bo'ladi. Shu bilan birga, o'qituvchilarning professional malakasini oshirish va ta'lim jarayonini demokratik, interfaol shaklda tashkil etish ta'lim sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Shuningdek, Flat Classroom Project kabi jahon miqyosidagi onlayn hamkorlik loyihalari o'quvchilarning global hamkorlik, madaniy almashinuv va interfaol fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu loyiha orqali turli davlatlardagi maktablar birlashtirilib, o'quvchilar va o'qituvchilar Web 2.0 texnologiyalari yordamida bir-biri bilan hamkorlik qiladi, ijodiy va analitik faoliyatni amalga oshiradi. Shu tariqa, o'quvchilar nafaqat bilim egallash, balki uni hayotiy vaziyatlarda qo'llash imkoniyatiga ham ega bo'ladi.

Bundan tashqari, dunyoning bir qator davlatlarida, xususan, Singapur, Yaponiya, Finlyandiya va boshqa rivojlangan mamlakatlarda boshlang'ich ta'limda fanlararo integratsiya va STEAM yondashuvi keng tatbiq etilmoqda. Bu yondashuv o'quvchilarga nazariy bilimni amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlashtirish, muammolarni hal qilish va ijodiy yechimlar topish imkonini beradi. Shu tariqa, o'quvchilar kundalik hayotdagi vaziyatlarda bilimlarni qo'llashni o'rganadi, mantiqiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari rivojlanadi hamda ularning kreativ salohiyati oshadi.


1-jadval: **STEAM ta'limining komponentlari**

Komponent	Mazmuni	Boshlang'ich sinfga tatbiqi
<b>Science</b>	Tajriba va kuzatishlar	Tabiiy fanlardan mini-laboratoriya ishlari
<b>Technology</b>	Raqamli vositalar	Planshet, elektron darslik
<b>Engineering</b>	Konstruksiyalar yaratish	Qurilish, LEGO, maketlar
<b>Arts</b>	Tasviriy san'at va dizayn	Rasm, kreativ loyihalar
Mathematics	Hisob-kitob va modellashtirish	Amaliy masalalar, diagrammalar

Bizningcha, o'rganish natijalariga ko'ra xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, interfaol pedagogik metodlar, raqamli vositalar va fanlararo integratsiyaga asoslangan yondashuvlar boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda samarali vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, global hamkorlik va ilg'or pedagogik tajribalarni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish o'quvchilarning XXI asr kompetensiyalarini shakllantirish, ularni kelajakdagi kasbiy va ijtimoiy faoliyatga tayyorlash hamda ta'lim jarayonini hayotiy sharoitlarga yaqinlashtirish imkonini beradi.

Ta'lim jarayonida metodik yondashuvlarning bosqichma-bosqich o'zgarib borishi zamonaviy pedagogikaning eng muhim xususiyatlaridan biridir. Ayniqsa, boshlang'ich ta'limda an'anaviy usullardan innovatsion metodlarga o'tish dinamikasi ta'lim sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. So'nggi yillarda olib borilgan monitoring natijalari shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilar tomonidan qo'llanilayotgan metodlar tarkibi izchil o'zgarib, zamonaviy, kompetensiyaga asoslangan yondashuvlarning ulushi barqaror oshib bormoqda. Bu jarayonning mohiyati shundaki, o'quvchilarning faolligi, mustaqil fikrlashi hamda tanqidiy yondashuvi kuchaytirilgan metodlar amaliyotda tobora ustunlik qozonmoqda. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy metodlardan foydalanish 2019–yildagi 82 foizdan 2024–yilda 41 foizgacha pasaygan, aksincha, innovatsion metodlarning ulushi 2019–yildagi 18 foizdan 2024–yilda 59 foizgacha ko'tarilgan. Ayniqsa, 2023–yil ushbu o'zgarish jarayonida burilish nuqtasi sifatida ajralib turadi: mazkur yilda innovatsion metodlar ulushi (52%) an'anaviy metodlar ulushidan (48%) ilk bor yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan<sup>[7]</sup>. Bu esa ta'lim amaliyotida zamonaviy yondashuvlarning ahamiyati va zarurligi tobora ortib borayotganini yaqqol namoyon etadi.

An'anaviy va innovatsion metodlar



2-rasm: **An'anaviy dars metodlaridan foydalanishning kamayishi**

Mazkur o'zgarishlarni aks ettiruvchi kesishuvchi chiziqli infografika tahlil qismida alohida ahamiyat kasb etadi. An'anaviy va innovatsion metodlar o'zaro kesishgan nuqtada o'zgartirish zarurati yaqqol ko'rinadi.




Grafikda ikki metodning o'zaro harakat dinamikasi, o'sish va pasayish jarayonlari, eng muhimi, 2023-yildagi kesishish nuqtasi aniq aks etgan. Bu esa ta'lim jarayonini optimallashtirish, dars metodikasini takomillashtirish va innovatsion yondashuvlarni kengroq tatbiq etish zaruratini ilmiy asosda tasdiqlaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'limni modernizatsiya qilish va metodik yangilanishlarni joriy etish jarayoni ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning mantiqiy, ijodiy va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlanadi. Innovatsion pedagogik yondashuvlar, raqamli texnologiyalar va interfaol metodlar o'quvchilarning faol bilim egallashini rag'batlantiradi, ularni tanqidiy fikrlashga, muammolarni mustaqil hal qilishga hamda ijodiy yechimlar topishga o'rgatadi. Xalqaro tajribalar, xususan, Finlyandiya, Singapur, Yaponiya va boshqa davlatlardagi ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'rganish va ularni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish imkoniyatlarini ko'rsatadi.

PISA 2022-yil natijalari shuni ko'rsatadiki, ilg'or ta'lim tizimiga ega davlatlar orasida Singapur, Finlyandiya va Yaponiya yetakchilik qilmoqda. Jumladan, matematika bo'yicha o'quvchilarning o'rtacha ko'rsatkichlari Finlyandiya 484 ball, Yaponiyada 536 ball bo'lgan bo'lsa, Singapur 575 ball bilan dunyo miqyosida eng yuqori natijani qayd etgan. O'qish savodxonligi bo'yicha Finlyandiya 520 ball, Yaponiya 516 ball, Singapur esa 543 ball ko'rsatkichni tashkil etgan. Tabiiy fanlar yo'nalishida ham Singapur (561 ball) yetakchilik qilib, undan keyin Yaponiya (547 ball) va Finlyandiya (545 ball) natijalari qayd etilgan <sup>[8]</sup>.



3-rasm: Xalqaro ta'lim modellarining taqqoslanishi va PISA 2022 natijalari

Shu bilan birga, STEAM dasturi va fanlararo integratsiya o'quvchilarning amaliy va ijodiy kompetensiyalarini mustahkamlashda muhim vosita bo'lib, boshlang'ich ta'limni hayotiy vaziyatlar bilan bog'lashga yordam beradi. Shunday qilib, boshlang'ich ta'limni modernizatsiya qilish, metodik yangilanishlar va xalqaro tajribalarni tatbiq etish o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga, ta'lim sifatining oshishiga hamda jamiyatning intellektual salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sohasiga oid qaror va farmonlari. – Toshkent, 2020–2025.
2. G'afferova, T. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2024.
3. Hasanov, A. Rivojlanish psixologiyasi. – Toshkent, 2023.
4. UNESCO. Inclusive Education Guidelines. – Paris: UNESCO Publishing, 2023.
5. Vygotskiy, L. S. Pedagogik psixologiya. – Moskva: Pedagogika, 2020.
6. Shodmonova, S. Raqamli ta'limning nazariy asoslari. – Toshkent, 2024.
7. Qodirova, M., Jo'rayev, B. Boshlang'ich ta'limda pedagogik metodlarning transformatsiyasi: monitoring natijalari va tahlil. – "Ta'lim va Innovatsiya" ilmiy jurnali, 2024, 3(2), 45–56.
8. OECD. PISA 2022 Results: Country Profiles.
9. Xoshimov, Q., Yo'ldoshev, J. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2022.
10. Ziyomuhamedov, B., To'xtaxodjeyev, A. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2023.
11. Fullan, M. The New Pedagogy for Deep Learning. – USA: Pearson, 2020.
12. Darling-Hammond, L. Teaching and Learning for the 21st Century. – Stanford University Press, 2022.
13. STEAM Education Research Group. Integrating STEM/STEAM in Primary Schools. – 2022.
14. [https://www.oecd.org/en/publications/pisa-2022-results-volume-i-and-ii-country-notes\\_ed6fbcc5-en/uzbekistan\\_2bb94bf1-en.html](https://www.oecd.org/en/publications/pisa-2022-results-volume-i-and-ii-country-notes_ed6fbcc5-en/uzbekistan_2bb94bf1-en.html)

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №12**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.